



UDK: 428:94(584.4)(09)

Xabibjon OLIMJONOV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti v.b., PhD
E-mail: olimjonov_1860@mail.ru

Tarix fanlari doktori (DSc), professor Z.Saidboboyev taqrizi asosida

O'ZBEKISTON SSRDA KUTUBXONA ISHI TARIXI (IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARI)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston SSRda kutubxona ishining rivojlanishi, uning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Urush davrida kutubxonalar aholini ma'naviy qo'llab-quvvatlash, targ'ibot ishlarini olib borish hamda ilmiy-ma'rifiy faoliyatni davom ettirishda muhim rol o'ynagan. Kutubxona xodimlarining urush sharoitidagi fidokorona mehnati hamda axborot xizmatlarini uzluksiz tashkil etish tajribasi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Ikkinchi jahon urushi, O'zbekiston SSR, kutubxona ishi, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat, targ'ibot, evakuatsiya, madaniyat, axborot xizmati.

ИСТОРИЯ БИБЛИОТЕЧНОГО ДЕЛА В УЗБЕКСКОЙ ССР В ГОДЫ ВТОРАЯ МИРОВАЯ ВОЙНА

Аннотация

В данной статье рассматривается развитие библиотечного дела в Узбекской ССР в годы Вторая мировая война, а также его роль в общественной жизни. В военный период библиотеки выполняли важные функции по духовной поддержке населения, распространению информации и ведению просветительской деятельности. Особое внимание уделяется влиянию эвакуированных научных учреждений и специалистов на библиотечную систему региона.

Ключевые слова: Вторая мировая война, Узбекская ССР, библиотечное дело, просвещение, пропаганда, эвакуация, культура, информационное обслуживание.

THE HISTORY OF LIBRARY SCIENCE IN THE UZBEK SSR DURING WORLD WAR II

Annotation

This article examines the development of library services in the Uzbek SSR during the World War II and analyzes their role in society. During the wartime period, libraries played a crucial role in providing moral support to the population, disseminating information, and maintaining educational activities. The impact of evacuated scientific institutions and specialists on the library system is also highlighted.

Key words: World War II, Uzbek SSR, library science, enlightenment, propaganda, evacuation, culture, information services

Kirish. Yangi O'zbekistonda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, kitob mutolaasiga bo'lgan qiziqishni uyg'otishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan e'tiborga molik ishlar, xususan ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat, san'at va adabiyot sohalarini izchil rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida ilm va ijod ahlini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kitobxonlik madaniyatini oshirish kabi vazifalar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan[1].

1930-yillarda O'zbekiston SSRda hukmron bo'lgan mafkuraviy muhit va "madaniy inqilob" g'oyasi kutubxonachilik tizimining tuzilishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu davrda ommani keng jalb etishga qaratilgan turli tashkiliy tadbirlar, majlislar, ko'rik-tanlovlar va targ'ibot ishlari muntazam ravishda o'tkazilib, ular orqali mavjud yutuqlarni targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratildi. Ayniqsa, kutubxonachilik ishini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan turli tanlov va musobaqalar bu jarayonning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lgan[7].

Jamoatchilikning faol ishtiroki natijasida 1935 yil davomida qishloq va tuman kutubxonalari uchun 115 ming nusxadan ortiq kitoblar yetkazib berildi. Ko'plab kutubxonalar yangi yoki moslashtirilgan binolarga ko'chirildi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish korxonalarini, kolxoz va sovxozlar, shuningdek, turli tashkilotlarda ko'chma kutubxonalar tashkil etilib, aholiga xizmat ko'rsatish qamrovi kengaytirilgan[2].

Biroq amalga oshirilgan ushbu chora-tadbirlarga qaramay, tanlovlar ko'p hollarda vaqtinchalik kampaniya tusini oldi. Qishloq kutubxonalarida ma'lum darajada ijobiy siljishlar kuzatilgan bo'lsa-da, belgilangan vazifalar to'liq amalga oshirilmadi. Ko'plab hududlarda kutubxonalar faoliyati barqaror tizim asosida yo'lga qo'yilmadi, ularning moddiy-texnik bazasi va kadrlar bilan ta'minlanish darajasi yetarli bo'lmagan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur tanlovlar orqali kutubxonachilik tizimini ommaviy ravishda joriy etish ko'zda tutilgan bo'lsa-da, amalda aholining keng qatlamlari uchun kitob orqali bilim olish imkoniyatlari cheklanganligicha qolgan. Qisqa muddatli savodxonlik kurslari va targ'ibot tadbirlari o'tkazilgan bo'lsa-da, ularning samaradorligi past darajada edi[8]. Tanlov va ko'riklarni tashkil etgan mutasaddilarning malaka darajasi hamda ularning mahalliy ijtimoiy muhitdagi obro'si yetarli bo'lmaganligi sababli, ular aholiga ta'sir ko'rsatishda kutilgan natijaga erisha olmagan. Natijada, mazkur davrda kutubxonachilik tizimi tashkiliy jihatdan kengaygan bo'lsa-da, uning sifat ko'rsatkichlari va real samaradorligi o'rtasida muayyan tafovut yuzaga kelganini kuzatish mumkin. Bu esa kutubxonachilik ishini yanada chuqurroq isloh qilish va tizimli rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1938-yilga kelib respublikada faoliyat

yuritayotgan kutubxonalar soni 1440 tadan oshgan bo'lib, ularning 975 tasi qishloq hududlarida joylashgan edi. Mazkur ko'rsatkich kutubxona tarmog'ining hududiy jihatdan kengayganini ko'rsatsada, ularning sifat ko'rsatkichlari, xususan fond hajmi va mazmuni jihatidan jiddiy muammolar mavjud edi. Qishloq kutubxonalarini son jihatdan ustun bo'lishiga qaramay, ularning aksariyati kitob fondining kamligi va sifatsizligi sababli shahar kutubxonalardan ancha orqada qolgan[7].

Kutubxonalarni hududlar bo'yicha joylashtirishda yagona, ilmiy asoslangan rejaning mavjud emasligi ham soha rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatgan omillardan biri bo'ldi. Masalan, 1936-yil ma'lumotlariga ko'ra, respublika hududida taxminan 10 mingga yaqin aholi punktlarida 6 milliondan ortiq aholi istiqomat qilgan bo'lsa-da, umumiy foydalanish kutubxonalarini asosan yirik shaharlar va tuman markazlarida jamlangan edi[7]. Natijada ayrim tumanlarda kutubxonalar umuman mavjud bo'lmagan, mavjud hududlarda esa kitob fondi va malakali kadrlar yetishmovchiligi kuzatilgan. Shuningdek, kutubxona fondlarida mahalliy millatlar tillaridagi adabiyotlarning kamligi ham dolzarb muammolaridan biri edi. Bu holat ayniqsa qishloq joylarda yashovchi aholi uchun kutubxonalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini cheklab qo'ygan. Chunki fondlarning asosiy qismi rus tilidagi adabiyotlardan iborat bo'lib, ular mahalliy aholi ehtiyojlariga to'liq javob bermas edi.

Shu bilan birga, respublikaning markaziy ilmiy muassasalaridan biri bo'lgan O'zbekiston Davlat Ommaviy kutubxonasi vaziyat mutlaqo boshqacha edi. Ushbu kutubxona mamlakatdagi yetakchi ilmiy va kutubxonachilik mutaxassislarini o'zida jamlagan markaz sifatida faoliyat yuritgan[9]. Bu yerda kutubxonachilik ishining asosiy yo'nalishlari ilmiy asosda tashkil etilib, fondlarni shakllantirish, ularni tizimli ravishda to'ldirish va kataloglar orqali tartibga solish ishlari puxta yo'lga qo'yilgan edi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur kutubxona faoliyatida kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, ularning ehtiyojlarini o'rganish, ilmiy axborot bilan ta'minlash masalalari ham ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lgan. Shuningdek, kutubxona xodimlarini tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlari tizimli ravishda amalga oshirilgan. Bu esa mazkur muassasani respublika kutubxonachilik tizimi uchun metodik va ilmiy markaz sifatida shakllanishiga olib kelgan.

Umuman olganda, urush yillarida O'zbekiston SSRda kutubxonachilik tizimi rivojlanishida keskin qarama-qarshiliklar mavjud bo'lgan. Bir tomondan, tizim tashkiliy jihatdan kengayib, yangi kutubxonalar tashkil etilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularning ko'pchiligida sifat, malaka va moddiy ta'minot bilan bog'liq jiddiy muammolar saqlanib qolgan. Shu bilan birga, markaziy ilmiy kutubxonalar faoliyati bu sohada ilg'or tajriba va metodik asoslarning shakllanishiga xizmat qilgan[10].

1939-yil 3-sentabrda Ikkinchi jahon urushining boshlanishi butun dunyo kabi O'zbekiston hududida ham ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotga sezilarli ta'sir ko'rsatdi[4]. Urushning dastlabki kunlaridanoq respublika aholisi uning salbiy oqibatlarini his eta boshladi. Bu, avvalo, oziq-ovqat mahsulotlari ta'minotining qisqarishi, narx-navoning keskin oshishi hamda 1935–1939-yillar oralig'idagi qisqa tanaffusdan so'ng yana kartochka tizimining joriy etilishi orqali namoyon bo'ldi[3]. Mazkur holat aholi turmush darajasining pasayishiga va umumiy ijtimoiy muhitning murakkablashuviga olib kelgan.

Ikkinchi jahon urushi arafasida O'zbekistonda kutubxonachilik ishining umumiy holatini baholashda faqat statistik ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmasdan, o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy muhitini ham hisobga olish zarur. Mazkur davr jamiyat hayotida keskin ziddiyatlar, qo'rquv muhiti va siyosiy bosimlar kuchaygan davr sifatida xarakterlanadi. Boshqacha fikrlovchilarga nisbatan bosimning ortishi, ommaviy siyosiy qatag'onlar, qishloq xo'jaligini majburiy jamoalashtirish jarayonidagi muammolar hamda oziq-ovqat ta'minotining yomonlashuvi umumiy ijtimoiy muhitni murakkablashtirgan. Shu sharoitda rasmiy statistik ma'lumotlar ko'pincha real holatni to'liq aks ettirmas edi. "Sotsializm yutuqlari"ni ko'rsatish maqsadida ayrim mahalliy rahbarlar tomonidan hisobotlarda ko'rsatkichlar

sun'iy ravishda oshirib ko'rsatilgan holatlar ham uchray turgan. Natijada joylardan yuqori tashkilotlarga kolxozlar, sovxozlar, mashina-traktor stansiyalari hamda ular qoshida kutubxonalar tashkil etilgan haqida hisobotlar yuborilgan bo'lsa-da, amalda ularning ko'pchiligi to'liq faoliyat yuritmagani yoki faqat nominal mavjud bo'lgan.

Haqiqiy holatda esa ko'plab kutubxonalar moslashtirilmagan, yetarli darajada jihozlanmagan binolarda joylashgan bo'lib, ularning moddiy-texnik bazasi nihoyatda zaif edi. Kutubxona fondlari ko'pincha tasodifiy tarzda shakllantirilib, adabiyotlar kutubxona kollektorlaridan yoki shahar markazlaridan imkon qadar yig'ib keltirilgan. Bunda kitoblarning mazmuni, sifati va eng muhimi, mahalliy aholi ehtiyojlariga mosligi masalasiga yetarlicha e'tibor qaratilmagan.

Natijada kutubxonachilik tizimi miqdoriy jihatdan o'sib borayotgan bo'lsa-da, uning sifat ko'rsatkichlari, xizmat ko'rsatish darajasi va ijtimoiy samaradorligi talab darajasida emas edi. Bu esa mazkur davr kutubxonachilik ishining rivojlanishida mavjud bo'lgan ichki ziddiyatlarni yaqqol namoyon etgan.

Tahil va natijalar. Umuman olganda, Ikkinchi jahon urushi arafasida O'zbekiston SSRda kutubxonachilik tizimi murakkab va ziddiyatli holatda bo'lgan. Bir tomondan, kutubxonalar sonining ortishi va davlat tomonidan e'tiborning kuchayishi kuzatilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularning moddiy-texnik ta'minoti, fond sifati va kadrlar bilan ta'minlanish darajasida jiddiy muammolar mavjud edi. Aynan shu holat keyingi yillarda kutubxonachilik tizimini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirgan.

1941-yil iyun oyida fashistlar Germaniyasining Sovet Ittifoqiga hujumi bilan urush yanada keng ko'lam kasb etdi. Shu tariqa O'zbekiston xalqi ham ittifoq tarkibida insoniyat tarixidagi eng dahshatli va talafotli urushlardan birida antifashistik koalitsiya safida ishtirok etdi. Urush yillarida respublika strategik ahamiyatga ega bo'lgan harbiy-sanoat bazasiga aylandi[2]. O'zbekiston front ehtiyojlari uchun inson resurslari, harbiy texnika, o'q-dorilar, kiyim-kechak, turli anjomlar va oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berishda muhim rol o'ynagan.

Bundan tashqari, respublika hududiga mamlakatning g'arbiy hududlaridan evakuatsiya qilingan 90 dan ortiq sanoat korxonalarini joylashtirilib, qisqa muddat ichida ishlab chiqarish faoliyatiga jalb etildi. Shu bilan birga, urush ehtiyojlaridan kelib chiqib, respublikaning o'zida ham yangi sanoat korxonalarini barpo etildi. 1941–1945-yillar davomida jami 280 ga yaqin sanoat korxonasining ishga tushirilishi[7]. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatini oshirish bilan birga, ilmiy-texnik axborotga bo'lgan talabni ham keskin kuchaytirgan.

Shu bilan birga, urush yillarida kutubxonalardan foydalanuvchilar tarkibida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, ilmiy xodimlar, muhandis-texnik mutaxassislar va ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar soni ortdi. Masalan, 1940 yilda O'zbekiston Davlat kutubxonasi ushbu toifadagi kitobxonlar umumiy o'quvchilar sonining 17,3 foizini tashkil etgan bo'lsa, 1945 yilga kelib bu ko'rsatkich 47 foizga yetdi[5]. Bu esa urush sharoitida ilmiy-texnik bilimlarga bo'lgan ehtiyoj keskin oshganini ko'rsatgan.

Toshkent shahridagi kutubxonalarda harbiy xizmatchilar ulushi ham sezilarli darajada ortdi. Agar 1940 yilda ular umumiy kitobxonlarning atigi 2,4 foizini tashkil etgan bo'lsa, 1944 yilga kelib bu ko'rsatkich 17,6 foizga yetdi. Bu o'zgarishlar kutubxona fondlariga va o'qilayotgan adabiyotlar mavzusiga ham bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Urush davrida harbiy, texnik va tibbiy adabiyotlarga bo'lgan talab keskin oshdi. Front ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan bilimlar, yangi texnologiyalar, tibbiy yordam ko'rsatish usullari va strategik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan adabiyotlar eng ko'p talab qilinadigan manbalarga aylandi. Shu tariqa kutubxonalar nafaqat ma'naviy-ma'rifiy markaz, balki ilmiy-texnik axborotlarni yetkazib beruvchi muhim muassasa sifatida ham faoliyat yuritgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston SSRda kutubxonachilik tizimi murakkab sharoitlarda faoliyat olib bordi. Bir tomondan, iqtisodiy qiyinchiliklar va resurslar tanqisligi tufayli

kutubxonalar tarmog'i qisqargan bo'lsa, ikkinchi tomondan, axborotga bo'lgan ehtiyojning ortishi ularning jamiyatdagi ahamiyatini yanada oshirdi. Bu esa kutubxonachilik tizimining urush sharoitida ham o'z faoliyatini davom ettirish va yangi vazifalarni bajarishga moslashganligini ko'rsatadi. Urush yillarida kutubxonalar faoliyatida ommaviy va individual xizmat ko'rsatish shakllari orqali ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarni targ'ib qilish yetakchi yo'nalishlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etdi. Mazkur davrda kutubxonalar nafaqat axborot manbai, balki mafkuraviy ta'sir vositasi sifatida ham faoliyat yuritdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, agar 1941 yilda O'zbekiston kutubxonalari tomonidan kitobxonlarga 89,5 ming nusxa ommaviy-siyosiy adabiyotlar berilgan bo'lsa, 1942 yilga kelib bu ko'rsatkich 105,5 ming nusxaga yetgan[6]. Bu esa urush sharoitida aholining siyosiy-ma'rifiy axborotga bo'lgan ehtiyoji sezilarli darajada oshganini ko'rsatgan.

Respublika Maorif xalq komissarligi tomonidan kutubxonalarga adabiyotlarni targ'ib qilishning turli shakllarini keng joriy etish vazifasi yuklatildi. Jumladan, kitob va gazeta materiallarini muntazam ravishda ovoz chiqarib o'qib eshittirish, suhbatlar tashkil etish, savol-javob kechalari o'tkazish kabi usullar keng qo'llanildi. Bunday tadbirlar orqali aholi orasida siyosiy ongni shakllantirish, urush haqidagi ma'lumotlarni yetkazish va umumiy ruhiy ko'tarinkilikni ta'minlash maqsad qilgan edi.

Kutubxonalar faoliyati faqat an'anaviy binolar bilan cheklanib qolmay, ishlab chiqarish korxonalari, ilmiy muassasalar, oliy ta'lim muassasalari hamda gospitallarda ham faol olib borildi[3]. Bu esa kitob va axborotni kitobxonlarga yanada yaqinlashtirish, ularni bevosita ish joylarida va davolanish maskanlarida ta'minlash imkonini berdi. Ayniqsa, urush davrida yarador askarlar va harbiy xizmatchilar uchun kutubxona xizmatlarini tashkil etish muhim ijtimoiy vazifa sifatida qaralgan.

Urush yillarida harbiy qismlar va gospitallar qoshida yangi kutubxonalar tashkil etilishi ham kuzatildi. Ushbu jarayonda viloyat, shahar va tuman kutubxonalari faol ishtirok etib, zarur adabiyotlar bilan ta'minlash, madaniy tadbirlar o'tkazish kabi ishlarni amalga oshirdi. Ko'plab kutubxonalar faol kitobxonlar orasidan ixtiyoriy faollar guruhini shakllantirib, ularning yordami bilan turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilgan[7]. Shu jumladan, Qizil Armiya jangchilari hamda fashist bosqinchilaridan ozod etilgan hududlar aholisi uchun mahalliy aholi tomonidan ozod kitoblar, musiqa asboblari, gramfon plastinkalari va boshqa madaniy vositalar yig'ilib, yetkazib berilgan.

Mazkur ilmiy va ishlab chiqarish jamoalarining O'zbekiston olimlari bilan hamkorlikda faoliyat olib borishi fan taraqqiyotining tezlashishiga, ilmiy salohiyatning oshishiga hamda kutubxonalar faoliyatining mazmunan boyishiga xizmat qildi.

Natijada kutubxonalar ilmiy axborot almashinuvi markazi sifatida ham muhim rol o'ynay boshlangan.

Urush yillarida O'zbekiston SSRda kutubxonachilik tizimi murakkab sharoitlarga qaramay, jamiyat ehtiyojlariga moslashgan holda faoliyat yuritdi. Kutubxonalar nafaqat ma'naviy-ma'rifiy markaz, balki mafkuraviy, ilmiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida ham o'z ahamiyatini saqlab qoldi. Urush yillarida O'zbekiston hududiga ko'plab ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari hamda sanoat korxonalarining evakuatsiya qilinishi respublikaning ilmiy va ishlab chiqarish salohiyatini keskin oshirdi. Shu bilan birga, mudofaa ahamiyatiga ega ilmiy izlanishlar va ishlab chiqarish faoliyatining kengayishi kutubxonalar zimmasiga ham yangi va nihoyatda mas'uliyatli vazifalarni yukladi. Ayniqsa, ommaviy va ilmiy kutubxonalar oldida ilmiy xodimlar, muhandis-texnik mutaxassislar, xalq xo'jaligi sohasida faoliyat yuritayotgan kadrlarga yuqori darajada axborot xizmatlarini ko'rsatish vazifasi dolzarb bo'lib qolgan.

Mazkur sharoitda kutubxonalar tomonidan axborot-bibliografik xizmatlarni kengaytirish, yangi adabiyotlar bilan ta'minlash va kitob fondlarini tizimli ravishda shakllantirish zarurati yanada kuchaydi. Ayniqsa, evakuatsiya qilingan ilmiy muassasalar va sanoat korxonalarining ehtiyojlarini qondirish uchun zamonaviy ilmiy, texnik va ishlab chiqarish yo'nalishidagi adabiyotlarga talab keskin oshdi. Biroq urush sharoitida kitob mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining qisqarishi, gazetalar, ilmiy jurnallar va ilmiy asarlar nashrlarining kamayishi kutubxonalarni zarur adabiyotlar bilan ta'minlash jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Faqatgina 1944 yil oxirlariga kelib, "Soyuzpechat" tashkilotiga barcha madaniy-ma'rifiy muassasalarni markaziy va mahalliy gazeta va nashrlar bilan muntazam ta'minlash vazifasi yuklatilgach, vaziyat ma'lum darajada yaxshilandi. Bu esa kutubxonalar fondining yangilanishi va axborot ta'minotining tiklanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan[3].

1944 yildan boshlab ayrim kutubxonalar chet el adabiyotlarini ham xarid qila boshladi. Bu esa respublikada ilmiy axborot almashinuvi doirasining kengayishiga va ilmiy izlanishlarning sifat jihatdan boyishiga xizmat qilgan[7].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, respublika Maorif xalq komissarligi, O'rta Osiyo davlat universiteti rahbariyati, shuningdek, turli vazirlik va idoralar tomonidan maxsus kutubxonalar faoliyatini yaxshilashga qaratilgan choratadbirlar amalga oshirilgan. Xususan, 1941 yil 16 noyabrda qabul qilingan "Davlat ommaviy kutubxonasining holati va uning ishini qayta tashkil etish to'g'risida"gi buyruq kutubxonalar faoliyatini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirishga qaratilgan muhim hujjat bo'lgan.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2019. – 400 b.
2. Бетгер Е.К. Три четверти века культурной работы. К 75-летию юбилею Государственной публичной библиотеки Узбекской ССР им. А. Навои (1870–1945). Машинопись. – Ташкент, 1945. – 153 с.
3. Касимова А.Г. История библиотечного дела в Узбекистане. – Ташкент: "Ўқитувчи", 1981. – 298 с.
4. Касимова А.Г. Развитие сети массовых библиотек Узбекистана (1917–1941 гг.): Автореф. на соиск. дисс. канд. ист. наук. – Ташкент, 1965. – 16 с.
5. Qosimova O.G'. O'zbekistonda kutubxonachilik ishi tarixi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "O'qituvchi", 1977. – 197 b.
6. Qosimova O.G'. O'zbekistonda kutubxonachilik ishi tarixi. O'quv qo'llanma. 2-nashr. – Toshkent: "O'qituvchi", 1992. – 191 b.
7. Охунjonov E.O. Vatan kutubxonashunosligi tarixi. II-qism. – Toshkent, 2008. – 308 b.
8. Охунjonov Э.О. Кутубxonashunosлик, архившunosлик, китобшunosлик: назарияси ва тарихи. – Тошкент: "Тафаккур-бу'стони", 2011. – 520 б.
9. Рахимова М.А. История развития научных библиотек в Узбекской ССР (1917–1941 гг.): Автореф. на соиск. дисс. кан. ист. наук. – Ташкент, 1973. – 24 с.
10. Каримов Б.К. Развитие научных библиотек в Узбекской ССР (1941–1970): Автореф. на соиск. дисс. канд. ист. наук. – М., 1973. – 33 с.